

**AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARNING KREATIV
FIKRLASHINI RIVOJLANTIRUVCHI O'YIN TEXNOLOGIYALARINI
MODELLASHTIRISH**

Ochilova Sanamjon

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika institute Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi BT_24_04 - guruh 2-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19625297>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining o'rni yoritiladi. Dars jarayonida qo'llanilgan o'yinlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarga yondashuvi va yangi g'oyalar yaratish qobiliyati rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'yin texnologiyalariga asoslangan dars modelining samaradorligi amaliy misollar orqali ko'rsatib beriladi.*

***Kalit so'zlar:** akmeologik yondashuv, kreativ fikrlash, o'yin texnologiyalari, o'quvchi faolligi, ijodiy yondashuv, innovatsion ta'lim.*

***Аннотация.** В данной статье рассматривается роль игровых технологий в развитии креативного мышления учащихся на основе акмеологического подхода.*

Анализируется влияние игровых методов на формирование самостоятельного мышления, умения находить решения в проблемных ситуациях и генерировать новые идеи. Также показана эффективность модели урока, основанного на игровых технологиях, на основе практических примеров.

***Ключевые слова:** акмеологический подход, креативное мышление, игровые технологии, активность учащихся, творческое мышление.*

***Abstract.** This article examines the role of game-based technologies in developing students' creative thinking within the framework of an acmeological approach. It analyzes how games influence independent thinking, problem-solving skills, and the ability to generate new ideas. The effectiveness of a lesson model based on game technologies is also demonstrated through practical examples.*

***Keywords:** acmeological approach, creative thinking, game-based learning, student engagement, creativity, innovative education.*

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Global axborotlashuv, innovatsion jarayonlarning jadallashuvi hamda jamiyatning intellektual salohiyatga bo'lgan ehtiyoji ta'lim jarayonida an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, yangicha, samarali metodlarni joriy etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Akmeologiya insonning eng yuqori rivojlanish bosqichlariga erishish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sifatida pedagogik jarayonga yangi imkoniyatlar olib kiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning individual imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etish, ularning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda innovatsion yechimlar topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, kreativ fikrlashni rivojlantirishda akmeologik yondashuv o'yin texnologiyalari bilan uyg'unlashganda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

O‘yin texnologiyalari ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshiruvchi, ularni erkin fikrlashga undovchi hamda ijodiy muhitni shakllantiruvchi muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Biroq amaliyotda ushbu texnologiyalarni tizimli, ilmiy asosda modellashtirish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqotda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda akmeologik yondashuv asosida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish masalasi turli usullar orqali o‘rganildi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy yondashuvlar birgalikda qo‘llanilib, mavzuni kengroq ochib berishga harakat qilindi.

Avvalo, tadqiqotda kuzatish va tahlil metodlaridan foydalanildi. O‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, o‘yin orqali fikrlash darajasi va ijodiy yondashuvi kuzatildi. Ayniqsa, o‘yin davomida ularning mustaqil fikr bildirishga bo‘lgan intilishi va yangi g‘oyalar ishlab chiqishga harakat qilishi alohida e‘tiborga olindi. Bu esa o‘yin texnologiyalarining nafaqat qiziqarli, balki rivojlantiruvchi vosita ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek, qiyosiy tahlil metodi orqali an‘anaviy dars usullari bilan o‘yin asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi.

Natijada o‘yin elementlari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi yuqori bo‘lishi, ular erkinroq fikr yuritishi va darsga qiziqishi ortishi kuzatildi.

Tadqiqotda modellashtirish usulidan ham foydalanildi. Bu orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi o‘yin texnologiyalarining oddiy, tushunarli modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda dars jarayoni bir necha bosqichda tashkil etildi: avvalo, o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish, keyin o‘yin orqali muammo yechishga undash, undan so‘ng natijani birgalikda muhokama qilish va yakunda yangi fikrlar hosil qilishga yo‘naltirish.

Adabiyotlar tahliliga kelsak, mavzu bo‘yicha bir qator olimlarning ishlari o‘rganildi.

Xususan, amerikalik olim J. Guilford o‘zining “The Nature of Human Intelligence” asarida kreativ fikrlashni inson tafakkurining muhim qismi sifatida ko‘rsatadi [1]. U fikrlashning turli yo‘nalishlarda rivojlanishini ta‘kidlab, ayniqsa erkin va noodatiy fikrlashga alohida urg‘u beradi.

Mavzuni o‘rganish jarayonida, avvalo, o‘zbek olimlarining pedagogika va psixologiya sohasidagi ishlariga murojaat qilindi. Chunki o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasi bizning ta‘lim tizimimizda ham dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xususan, N. Muslimov o‘zining “Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” asarida kreativlikni zamonaviy o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biri sifatida baholaydi. Uning fikricha, o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi shaxs bo‘lishi kerak [2]. Aynan shunday yondashuv orqali o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash shakllanadi. Bu qarashlar bizning tadqiqotimiz uchun muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Shuningdek, R. Ishmuhamedovning “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” nomli asarida dars jarayonini zamonaviy usullar asosida tashkil etish masalalari keng yoritilgan.

Muallif o‘yin texnologiyalariga alohida to‘xtalib, ularning o‘quvchilar faolligini oshirishdagi rolini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, o‘yin elementlari qo‘llanilgan darslar o‘quvchilar uchun nafaqat qiziqarli, balki samarali ham bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning erkin fikrlashiga imkon yaratadi [3].

B. Qodirovning “Shaxs va uning rivojlanishi” asari esa o‘quvchi shaxsining shakllanish jarayonini tushunishda muhim manba bo‘ldi. Muallif shaxs rivojlanishida muhit, faoliyat va motivatsiyaning o‘rni katta ekanligini ta‘kidlaydi.

Aynan o'yin faoliyati orqali o'quvchilarda ijobiy motivatsiya hosil bo'lishi va bu ularning fikrlashiga ta'sir etishi bizning tadqiqotimizda ham o'z tasdig'ini topdi [4].

A. Avloniy nomi bilan bog'liq pedagogik qarashlar ham bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yosh avlodni tarbiyalashda fikrlash va ongni rivojlantirish muhimligi alohida qayd etiladi [5]. Garchi bu asar ancha oldin yozilgan bo'lsa-da, undagi fikrlar zamonaviy ta'lim bilan hamohangdir.

Shuningdek, U. Tolipov va M. Usmonboyevalarning "Pedagogik texnologiyalar" asarida zamonaviy darslarni tashkil etishning usullari batafsil tushuntirilgan. Mualliflar ta'lim jarayonida interaktiv va innovatsion metodlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirishini ta'kidlaydilar. Bu esa kreativ fikrlashni rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir [6].

NATIJAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining samaradorligi amaliy kuzatishlar orqali aniqlandi. Darslarda o'yin elementlari qo'llanilgan paytda o'quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Ular oddiy savol-javoblarga qaraganda o'yin davomida ko'proq fikr bildirishi, yangi g'oyalar taklif qilishi va dars jarayoniga faolroq jalb etilishi bilan ajralib turdi. Masalan, "Boshqacha yechim top" nomli o'yinda o'quvchilarga oddiy vaziyat berildi: "Agar daraxtlar gapira olsa, ular odamlarga nima der edi?" Ushbu savol o'quvchilarda noodatiy fikrlashni uyg'otdi. Ba'zi o'quvchilar daraxtlarni "tabiatni asrang" deb murojaat qiluvchi do'st sifatida tasvirlasa, boshqalari ularni insonlardan ranjigan obrazda ifodaladi [7]. Bu esa o'quvchilarning tasavvuri qanchalik keng ekanligini ko'rsatdi.

Yana bir misol sifatida "Yarim hikoyani davom ettir" o'yini qo'llanildi. O'qituvchi hikoyaning boshlanish qismini aytib berdi, o'quvchilar esa uni davom ettirdi. Natijada har bir o'quvchi o'ziga xos yakun taklif qildi. Bu jarayonda o'quvchilarning fikrlash tezligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvi yaqqol namoyon bo'ldi.

Guruh bilan ishlashga asoslangan o'yinlarda ham ijobiy natijalar kuzatildi. Masalan, "Muammoni hal qil" o'yinida o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, berilgan vaziyatga turli yechimlar ishlab chiqdi. Bir guruh an'anaviy yechimni taklif qilgan bo'lsa, boshqa guruh mutlaqo noodatiy, kreativ variantni ilgari surdi. Bu esa o'quvchilarning bir xil vaziyatga turlicha yondasha olishini ko'rsatdi [8].

Kuzatishlar davomida yana bir muhim jihat aniqlandi: o'yin jarayonida o'quvchilar xatodan qo'rqmaydi. Masalan, ayrim o'quvchilar dastlab noto'g'ri yoki kulgili javoblar bergan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ular yanada ishonch bilan fikr bildira boshladi. Bu esa darsda erkin psixologik muhit yaratilganini ko'rsatadi. Aynan shunday muhit kreativ fikrlashning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan model asosida darslarni tashkil etish ham samarali natija berdi. Darsning birinchi bosqichida qiziqarli savollar yoki kichik o'yinlar orqali o'quvchilarning diqqati jalb qilindi. Masalan, "Topqir savol" o'yini orqali o'quvchilar tezkor fikrlashga undaldi. Keyingi bosqichda asosiy o'yin faoliyati tashkil etilib, unda muammoli vaziyatlar berildi. Yakuniy bosqichda esa o'quvchilar o'z fikrlarini tahlil qilib, o'zaro muhokama qildi [9].

Natijalar shuni ko'rsatdiki, bunday darslar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki fikrlash tarzini ham o'zgartiradi.

Ular tayyor javobni kutmaydi, aksincha, mustaqil izlanishga harakat qiladi. Ayniqsa, “nima uchun?” va “yana qanday bo‘lishi mumkin?” kabi savollar o‘quvchilarning fikrlashini chuqurlashtiradi.

O‘yin texnologiyalari o‘quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi.

Ular darsda o‘z fikrini erkin ayta boshlaydi, boshqalarning fikrini tinglashni o‘rganadi va o‘z qarashlarini himoya qilishga harakat qiladi. Shuningdek, o‘yin asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning emotsional holati ham ijobiy bo‘ladi [10]. Ular darsni majburiyat sifatida emas, balki qiziqarli jarayon sifatida qabul qiladi. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot davomida akmeologik yondashuv asosida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi amaliy jihatdan tasdiqlandi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin elementlari qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilar faolroq ishtirok etadi, o‘z fikrini erkin bildiradi va yangi g‘oyalar ilgari surishga intiladi. Bu esa ularning mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘yin texnologiyalarini maqsadli va izchil qo‘llash o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi hamda muammoli vaziyatlarga turlicha yondashish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Ayniqsa, o‘yin jarayonida yaratilgan erkin va qulay muhit o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan birga, akmeologik yondashuv asosida tashkil etilgan darslar har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini ochishga xizmat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
2. Muslimov N. A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Fan, 2015. – 240 b.
3. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 256 b.
4. Qodirov B. R. Shaxs va uning rivojlanishi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 200 b.
5. Ochilov M. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 320 b.
6. Tolipov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2014. – 280 b.
7. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 160 b.
8. Hasanboyeva O. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 384 b.
9. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 192 b.
10. Raximov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018. – 224 b.